



PRINCIPLES OF VOCABULARY COMPOSITION

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10156833>

N.M. Kadirova

Andijan State Institute of Foreign Languages

Associate Professor of the Department of Theory and Practice of the German Language

Abstract

this article talks about the principles of vocabulary building and their place and importance in the language system.

Key words

dictionary, principle, phonetic, grammatical, word, meaning, lexicographic,

LUG'AT TUZISH TAMOYILLARI

N.M.Qodirova,

Andijon davlat chet tillari instituti

nemis tili nazariyasi va amaliyoti kafedrasida dotsenti

ANNOTATSIYA

ushbu maqola lug'at tuzish tamoyillari va ularning til tizimida tutgan orni va ahamiyati haqida so'z yuritiladi

Kalit so'zlar

lug'at, tamoyil, fonetik, grammatik, so'z, ma'no, leksikografik, tilshunoslik,

АННОТАЦИЯ

в данной статье говорится о принципах формирования словарного запаса, их месте и значении в языковой системе.

Ключевые слова

словарь, принцип, фонетический, грамматический, слово, значение, лексикографический, лингвистический, linguistics,

„Lug'at tuzish ishining naqadar mashaqqatli ekanligi, tuzuvchilarning fozil, sabrli, har qanday elementga ham o'ta sinchikovlik bilan yondashuvchilar ekanligini men Berlin akademiyasi lug'atshunoslik bo'limida kuzatgan edim. „Wörterbuch der deutschen Gegenwartssprache“ lug'ati tuzilish jarayonini kuzatar ekanman, ustoz lug'atshunos olimi Rut Klappenbah va uning rahbarligidagi lug'at



tuzuvchilar har bir soʻzning fonetik shakli, morfologik qurilishi va maʼno turlarini bir necha yuzlab, xatto minglab uzoq tarixiy manbalardan olinganligini tasdiqlovchi misol kartotekalar orqali hozirgi kundagi aniq holatini ifodalaganlariga guvoh boʻlganman” deb yozgan

edi professor M. E. Umarhoʻjaev. M.E. Umarhoʻjaev „Olmon tili leksikologiyasi va frazeologiyasi”. Til lugʻat boyligining nisbatan toʻliq analizi faqat lugʻatlar orqali amalga oshirilishi mumkin. Shu bois lugʻatlar yaratish masalasi barcha soha olimlarini bir necha asrlardan buyon qiziqtirib kelgan. Gʻarb va sharq tilshunos olimlari tomonidan koʻplab, turli xildagi lugʻatlar yaratilgan. Dunyo leksikografyasi ming yillik tarixga ega boʻlsa-da, uning asosiy rivoji keying ikki-uch asrga toʻri keladi. Ilk bor oz sonli soʻzlar va iboralardagina tashkil topgan qoʻlyozmalardan boshlangan lugʻatlar hozirgi kunga kelib tillarning yuz minglab soʻzlarini oʻz ichiga olib, minglab adadda chop etilmoqda. Keying yillarda leksikografyaning faqatgina amaliy tomoni emas, balki nazariy yoʻnalishi, obyekt, predmeti shakllandi. Lugʻat tuzish nazariyasi, amaliyoti tilshunoslikning maxsus sohasiga aylandi. Lugʻatshunoslik tilshunoslikning mana shunday oʻta mashaqqatli,

oʻta masʼulyatli sohasi boʻlganligi sababli ushbu savobli yoʻnalish bilan yetuk, fdokor, millatparvar olimlar shugʻullanmoqdalar.

L, V, Xerbaning 1939-yil 27-sentabr kuni sobiq ittifoq Fanlar Akademiyasi tilva adabiyot boʻlimida qilgan „Опыт общей теории лексикографии” nomli doklad nazariy leksikografyaning shakllanishiga asos soldi. L, V, Xerbaning lugʻat turlarini ularning oʻziga xos xususiyatlaridan kelib chiqqan xolda oʻzaro qiyoslab oʻrganish va taxlil qilish nazariyasi hozirgi kunda xam oʻz kuchini yoʻqotgani yoʻq. Soʻngi yillarda nazariy leksikografyaning bir qator yangi sohalarini atroflicha oʻrganildi. Chunki lugʻat tuzish hozirgi kunda kompleks ilmiy va tashkiliy muammolarni xal qilish orqali amalga oshirilishi tabiiy. Bu oʻrinda leksikografyaning soʻngi yillarda tez rivoj topayotgan „Oʻquv leksikografyasi” - „Unterrichtsbezogene Lexisgraphie” yoʻnalishi yutuqlari diqqatga sazovordir. Bu sohada rus tilshunoslari A. A. Novinkov, P. N. Denisov, V. V. Morkovkinlarning ilmiy va amaliy ilmiy ishlarini alohida taʼkidlash lozim. Oʻquv leksikografyaning shakllanishida P. N. Denisovning doktorlik dissertatsiyasi, bir qator ilmiy maqolalari, „Очерки по русской лексикологии и учебной лексикографии” monografiyasi kata ahamiyatga ega boʻldi. Oʻzbekistonda zamonaviy lugʻatshunoslik va tarjimashunoslikning dolzarb masalalari. Darvoqe, jahon tillari nazariy leksikografyasi tarixiga nazr tashlasak hamda ushbu yoʻnalishni tilning tarixi, grammatikasi, fonetikasi, va boshqa sohalarini oʻrganuvchi fanlar bilan qiyoslasak, leksikografya sohasida qilingan ilmiy tadqiqotlar daryodan tomchiga oʻxshaydi.



Mashxur leksikograf L. Zgustaning yozishicha, dunyoda leksikografya bo'yicha qilingan ishlar adaddi yigirmaga yaqin ekan xolos.

L. A. Novinkov o'ziga xos „O'quv lug'atlar" tipologiyasini taklif qiladi. Uning fkriga ko'ra o'quv lug'atlari pradigmatik-sintagmatik, semasiologik-onomasiologik, bir tilli-ikki tilli lug'atlar xamda tilning maxsus system birliklari-so'z yasash, chastotali, valentlik va distribusiya lug'atlaridan iborat bo'lishi lozim. Turli vaqtlarda xam son, xam sifat nuqtai nazaridan turlicha tuzilgan nemis tili lug'atlari klassifikasiyasi taniqli lingvistlar E. Agrikola, V. Flaysher, X. Protse tomonidan ishlab chiqilgan xamda „Kleine Enzyklopedie die deutsche Sprache" Leipzig.1969. kitobida uch nuqtai nazardan yoritilgan. Lug'at tuzishda olimlar ishlab chiqqan tamoyillar quyidagilardir:

- 1.Nach dem Sprachträger (o'sha tilda gapiruvchiga)
- 2.Nach dem Entwicklungsstufen der Sprache (til rivojlanish davrlari)
- 3.Nach der Sprachstruktur (til tizimiga)

G'arb tillari amaliy leksikografyasi so'ngi asrda yangi pog'onaga ko'tarildi. Bu o'rinda ingliz tilining Oxford, Webster, fransuz tilining Larus, nemis tilining Duden, Langenscheidt, Rossiya nashriyotlarining sermaxsul va sifatli lug'atlarini eslatib o'tish kifoya. Bunda nazariy jixatdan asoslangan, amaliy tomondan ma'lum maqsadga yo'naltirilgan lug'atlar yaratish va chop etish izchil yo'lga qo'yilgan. Demak bizning nazarimizda ma'lum bir aniq maqsadga yo'naltirilmagan, olinayotgan-berilayotgan so'zlarning son va sifat jixatlari ilmiy asoslanmagan, faqat tuzuvchining „ta'bi" bilan chegaralanib qolayotgan lug'atlarni chop etish davri o'tdi. Xozirgi kunda

leksikografyaning keng tarmoq otayotgan ideografk lug'atlar tuzish tamoyillari G.Shuhard nomi bilan bog'liq.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- 1.Чет тилларни ўрганиш тизимини янада такомиллаштириш чоратадбирлари тўғрисида. "Андижоннома" газетаси. 2012 йил 15 декабрь
2. Т. А. Нурматов. Немис тили фонетикаси. Тошкент "Ўзбекистон" 2002
- 3.О. Zaxer „Deutsch Phenetik" Leningrad 1969
4. Oripovna, A. I., Maxammadjonovna, S. L., Odiljonovich, Y. I., & Pazlidinovich, Q. O. T. (2022). Speech chain and repeated nomination in different system languages. *Linguistics and Culture Review*, 6(S2), 485-490.